

*Dastlabki ma'lumotlar*

*2018 yil yanvar-dekabr holatiga*

**Aholining umumiy daromadlari -  
286,3 trln.so'm**

**· Aholi umumiy daromadlarining real  
o'sish sur'ati - 110,3 %**

**· Aholi jon boshiga umumiy  
daromadlari - 8 686,6 ming so'm**

**· Aholi jon boshiga real umumiy  
daromadlari - 7 391,0 ming so'm**

Mamlakat aholisining farovonlik darajasini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlaridan biri aholi daromadlari hisoblanadi.

Aholining umumiy daromadlari - majburiy to'lovlar va boshqa ajratmalarni amalga oshirgunga qadar bo'lgan yalpi daromadni ifoda etadi.

Aholining umumiy daromadiga pul daromadlari va natura shaklidagi daromadlar kiradi hamda doimiy asosda, takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan tushumlardan tarkib topadi.



Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilning yanvar-dekabr holatiga aholi umumiy daromadlari 286,3 trln. so'mni, bir kishiga o'rtacha hisoblaganda 8,7 mln. so'mni tashkil etdi.


Real daromadlar nominal daromadlarni chakana narxlar va tariflar o'zgarishini hisobga olgan holda nominal daromadlarning real xarid qilish qobiliyatini ifodalaydi.

Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholining umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati 110,3 % ni, aholi jon boshiga umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati 108,4 % ni tashkil etdi.






## 2018 yilning yanvar-dekabr holatiga O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlari hajmi, ming so'm



Aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlari bo'yicha Toshkent shahrida (16 262,4 ming so'm) hamda Navoiy (13579,0 ming so'm), Buxoro (10825,1 ming so'm), Xorazm (9146,0 ming so'm) va Toshkent (9076,3 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlar qayd etilganligi kuzatildi. Aholi jon boshiga daromadlarning eng quyi ko'rsatkichlari esa Qoraqalpog'iston Respublikasi (6311,1 ming so'm) va Namangan viloyatida (6801,4 ming so'm) qayd etildi.



## 2018 yilning yanvar-dekabr holatiga O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarining real o'sish sur'atlari, %



Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sishi Surxondaryo va Xorazm viloyatlariga (11,3%) to'g'ri keladi. Shuningdek, Jizzax (11,1%), Buxoro (9,9%) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (9,5%) hamda Farg'ona (9,2%), Navoiy (8,8%) va Samarqand (8,5%) viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromad ko'rsatkichlarining real o'sishi respublika darajasidan yuqorini tashkil etgan.








Aholi umumiy daromadlari hajmining sezilarli darajada o'sishi asosan umumiy daromadlar tarkibida 71,1% ulushga ega bo'lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) va 23,5 % ni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o'zgarishi hisobiga yuzaga kelgan.

## Aholi umumiy daromadlari tarkibi, %




- Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar
- Transfertlardan daromadlar
- Mol-mulkdan olingan daromadlar
- Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar





## 2018 yilning yanvar-dekabr holatiga O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibi (hudud aholi umumiy daromadlariga nisbatan, %)



- Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar
- Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan va mol-mulkdan olingan daromadlar
- Transfertlardan daromadlar

Hududlarning aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) eng yuqori ulushi Navoiy (84,2%) viloyatida kuzatildi. Aksincha, Toshkent shahri, Xorazm, Samarqand, Namangan, Farg'ona va Andijon viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.

Shuningdek, Xorazm viloyatida transfertlardan olingan daromadlar aholi umumiy daromadlariga nisbatan 30% dan yuqori ulushni tashkil etdi.

# Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning aholi umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi

71,1%

125,1%

2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan nominal o'sish sur'ati

## Yollanma ishchilarning daromadlari




123,6%

2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan nominal o'sish sur'ati

26,4%

Aholi umumiy daromadlaridagi ulushi

2018 yilning yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, %)




# Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning keyingi asosiy manbai mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar hisoblanadi.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 126,0 % ni tashkil etdi. Aholi umumiy daromadlari hajmida ushbu daromad manbai katta ahamiyatga ega bo'lib, uning ulushi 44,8 % ni tashkil etdi.

Hududlarda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning ulushi turlicha va 17,4% dan (Toshkent shahrida) 61,7% gacha (Jizzax viloyatida) o'zgarib turadi. Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning hudud aholi umumiy daromadlari tarkibidagi 50% dan yuqori ulushi Buxoro (52,2%), Surxondaryo (52,0%), Andijon va Sirdaryo (50,5%) hamda Samarqand viloyatlarida (50,3%) kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha umumiy daromadlar tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi, %






# Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1% ga o'sishi umumiy daromadlar hajmining 0,46% ga o'sishiga olib keladi.

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning aholi umumiy daromadlariga nisbatan ulushi va ularning o'sish sur'atining yuqoriligi yalpi daromadlarning o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.



## Hududlar bo'yicha mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1% ga o'sishining aholi umumiy daromadlari hajmi o'sishiga ta'siri, %



Jizzax viloyatida aholi umumiy daromadlari tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning ulushi 61,7% ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan nominal o'sish sur'ati 133,2% ni tashkil etdi. Birgina ushbu turdagi daromadlarning o'zi Jizzax viloyati aholi umumiy daromadlarining 20,3% ga o'sishini ta'minlab berdi.

Xuddi shunday Surxondaryo viloyatida 52,0% ulush va 129,1% o'sish sur'ati, aholi umumiy daromadlarining 15,7% ga o'ishini ta'minlab berdi.





# Mol-mulkdan olingan daromadlar

**9,9 trln. so'm**

Mol-mulkdan olingan daromadlarning umumiy hajmi



**133,5%**

2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati




**3,5%**

Aholi umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi



Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibi, %



Foizlar



Dividendlar



Mualliflik haqi



Boshqa mulkiy daromadlar

Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida hududlarning ulushi

Hududlar	Jami mol-mulkdan olingan daromadlardagi ulushi, %
Qoraqalpog'iston Resp.	1.1
viloyatlar:	
Andijon	1.8
Buxoro	2.5
Jizzax	0.7
Qashqadaryo	2.1
Navoiy	1.1
Namangan	3.2
Samarqand	4.1
Surxondaryo	1.4
Sirdaryo	0.7
Toshkent	6.3
Farg'ona	3.5
Xorazm	2.4
Toshkent sh.	69.0



# Transfertlardan olingan daromadlar



2018 yilning yanvar-dekabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra o'tgan yilning mos davriga nisbatan transfertlardan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 146,2 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ushbu davrda aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi 2,6 % punktga oshdi va 23,5 % ni tashkil etdi.


## Transfertlardan olingan daromadlar tarkibi

38,7% Ijtimoiy transferftlar


61,3% Boshqa joriy transferftlar

## Ijtimoiy transferftlar

Ijtimoiy transferftlarning turlari bo'yicha o'sish sur'ati, %



Ijtimoiy transferftlar tarkibi, %





# Ijtimoiy transfertlar

O'tgan davr mobaynida pensiya, nafaqa va stipendiyalarning o'zgarishi aholi umumiy daromadlarining 2,3% ga o'sish imkonini berdi.

Ijtimoiy transfertlarning o'sishiga uning tarkibida 82,8% ulushga ega bo'lgan pensiyalar ta'sir ko'rsatdi.



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida jami 3,3 trln. so'm miqdorida nafaqa va moddiy yordamlar ajratildi. Shundan 52,3% byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtiriladigan davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar va 47,7% respublika va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan.

## Hududlar bo'yicha ijtimoiy nafaqalarning shakllanish manbalari

Hududlar	Jami	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan, %	Respublika va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan, %
Qoraqalpog'iston Resp.	100	38.7	61.3
viloyatlar:			
Andijon	100	54.4	45.6
Buxoro	100	54.7	45.3
Jizzax	100	46.4	53.6
Qashqadaryo	100	41.1	58.9
Navoiy	100	58.5	41.5
Namangan	100	46.5	53.5
Samarqand	100	47.0	53.0
Surxondaryo	100	51.4	48.6
Sirdaryo	100	56.9	43.1
Toshkent	100	77.7	22.3
Farg'ona	100	58.6	41.4
Xorazm	100	55.0	45.0
Toshkent sh.	100	97.8	2.2




## Boshqa joriy transfertlar

2018 yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining nominal o'sish sur'ati 164,6% ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,0% punktga oshdi. Ushbu daromadlarning bunday sezilarli o'zgarishi aholi umumiy daromadlari nominal qiymatini 7,3% ga o'sishini ta'minlab berdi.



**Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining ulushi, %**






# Aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar



2018 yil yanvar-dekabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra aholi umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi 62,6% ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning hudud aholi umumiy daromadlaridagi ulushi turlicha: eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (73,2%) kuzatilgan bo'lsa, eng kam ulush esa Toshkent shahrida (51,7%) qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi, %



Davlat statistika qo'mitasi  
Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari  
statistikasi boshqarmasi  
Nashr uchun mas'ul: J.Yuldashev  
Aloqa telefoni: (71) 230-81-67

